


**SAMARQAND VILOYATINING CHAKANA SAVDO  
TOVAR AYLANMASI**  
(2020-yil yanvar-fevral)

2020-yilning yanvar-fevral oylarida, viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 2 102,7 mlrd. soʻmni tashkil etib, 2019-yilning shu davriga nisbatan 9,6 % ga oʻsdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 348,3 mlrd. soʻmni (oʻsish surʻati 142,1 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 1 754,4 mlrd. soʻmni (oʻsish surʻati 104,9 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 155,2 mlrd. soʻm (2019-yilning shu davriga nisbatan 93,8 %) ni tashkil etdi.




Chakana savdo tovar aylanmasi hajmi hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori koʻrsatkich Samarqand shahri (723,9 mlrd. soʻm), Urgut (231,9 mlrd. soʻm) va Pastdargʻom (142,8 mlrd. soʻm) tumanlari hissasiga toʻgʻri keldi. Buning sababi ushbu hududlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hamda yirik savdo tashkilotlarining koʻpligidadir.

HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO  
TOVAR AYLANMASI HAJMI

(2020-yil yanvar-fevral)

(mlrd. so'm)




CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR,  
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING  
HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI (mlrd. so'm, foiz)  
(2020-yil yanvar-fevral)

Hududlar nomi	Jami	%	Yirik korxonalar	%	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik	%
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>2 102,7</b>	<b>109,6</b>	<b>348,3</b>	<b>142,1</b>	<b>1 754,4</b>	<b>104,9</b>
Samarqand shahri	723,9	114,5	280,5	143,7	443,4	101,5
Kattaqo'rg'on shahri	109,6	106,8	0,2	61,1	109,4	107,0
<i>tumanlar:</i>						
Bulung'ur	110,0	105,6	0,8	4,4 m.	109,2	105,0
Jomboy	57,6	103,4	0,8	3,1 m.	56,8	102,4
Ishtixon	84,1	106,0	2,5	5,7 m.	81,6	103,5
Kattaqo'rg'on	80,6	106,6	1,5	7,3 m.	79,1	104,9
Narpay	67,4	106,7	1,0	4,4 m.	66,4	105,5

Hududlar nomi	Jami	%	Yirik korxonalar	%	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik	%
Nurobod	72,2	106,8	0,5	4,8	71,6	106,2
Oqdaryo	43,6	104,0	1,1	2,5 m.	42,6	102,5
Payariq	75,5	105,7	1,4	2,9 m.	74,1	104,5
Pastdarg'om	142,8	109,4	6,1	89,3	136,7	110,5
Paxtachi	65,6	107,2	0,9	2,9 m.	64,7	106,3
Samarqand	120,6	122,0	45,2	128,2	75,4	118,5
Tayloq	56,6	104,3	0,9	7,4 m.	55,7	102,9
Urgut	231,9	104,6	4,5	99,5	227,4	104,7
Qo'shrabot	60,7	105,8	0,4	2,6 m.	60,3	105,3

2019-yilning shu davriga nisbatan viloyatning barcha tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Samarqand, Kattaqo'rg'on shaharlarida va Samarqand, Pastdarg'om, Paxtachi, Nurobod va Narpay tumanlarida qayd etildi.

**HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR  
AYLANMASINI O'SISH SUR'ATLARI (foizda)  
(2020-yil yanvar-fevral)**




**CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI**  
**(2020-yil yanvar-fevral)**  
*(hajmi va o'sish sur'atlari)*

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi 2019-yilning mos davriga nisbatan 42,1 % ga o'sdi va 348,3 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 16,6 % ulushiga to'g'ri keldi.


Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 1754,4 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 4,9 % ga o'sdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 83,4 % ga teng keldi, shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 155,2 mlrd. so'mni tashkil etib, viloyatdagi ulushi 7,4 % ni tashkil etdi.

**CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI**  
*(hajmi va o'sish sur'atlari)*



## Samarqand viloyatining chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi

( mlrd. so`m )




### CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING TUMANLAR KESIMIDA ULUSHI (foizda) (2020-yil yanvar-fevral)

Tahlil natijalariga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Kattaqo'rg'on shahri (99,8 %), Qo'shrabot (99,3 %), Nurobod (99,3 %), Bulung'ur (99,2 %), Jomboy (98,6 %) va Paxtachi (98,6 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 16,6 % ni tashkil etib, eng katta ulush Samarqand shahrida (38,8 %), Samarqand tumanida (37,5 %) va Pastdarg'om tumanida (4,3 %) kuzatildi.

**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR,  
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING  
TUMANLAR KESIMIDA ULUSHI (foizda)  
(2020-yil yanvar-fevral)**




**MULKCHILIK SHAKLI BO'YICHA CHAKANA  
SAVDO TOVAR AYLANMASI ULUSHI, (foizda)  
(2020-yil yanvar-fevral)**

2020-yil yanvar-fevral holatiga chakana savdo tovar aylanmasi 2 102,7 mlrd. so'm (2019-yilning mos davri bilan solishtirganda 9,6 % ga o'sdi) va mulkchilik shakllari bo'yicha 2 102,3 mlrd. so'm nodavlat mulki (99,98 %) hamda 0,4 mlrd. so'm (0,02 %) davlat mulkiga to'g'ri keldi.



**MULKCHILIK SHAKLI BO‘YICHA CHAKANA  
SAVDO TOVAR AYLANMASI ULUSHI, (foizda)**

2019-yil yanvar-fevral




2020-yil yanvar-fevral



**Chakana savdo tovar aylanmasida shahar  
va tumanlarning ulushi, (%)  
(2020-yil yanvar-fevral)**

Chakana savdo tovar aylanmasida shahar va tumanlarning ulushini tahlil qilganda Samarqand shahri 34,4 %, Urgut tumani 11,0 %, Pastdarg‘om tumani 6,8 %, Samarqand tumani 5,7 % va Bulung‘ur tumani 5,2 % bilan yetakchilik qilmoqda. Buning sababi ushbu hududlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hamda yirik savdo tashkilotlarining ko‘pligidir. Ushbu ko‘rsatkich viloyat hududlari kesimida quyidagicha ko‘rinish olgan.

**Chakana savdo tovar aylanmasida shahar  
va tumanlarning ulushi, (%)**  
(2020-yil yanvar-fevral)



2020-yil yanvar-fevral oylarida chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo'yicha aholi jon boshiga 547,8 ming so'mni tashkil qilib, 2019-yilning shu davriga nisbatan 7,4 % ga ko'paydi. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2020-yilning yanvar-fevral oylarida 2019-yilning shu davriga nisbatan viloyatning barcha hududlarida o'sish ko'rsatkichlarini tashkil etib, eng yuqori ko'rsatkichlar Samarqand shahri (1 334,4 ming so'm), Kattaqo'rg'on shahri (1 234,7 ming so'm) va Bulung'ur tumani (596,5 ming so'm) hissasiga to'g'ri keldi.

Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo'yicha eng kam ko'rsatkichlar Oqdaryo (277,8 ming so'm), Tayloq (285,5 ming so'm) va Kattaqo'rg'on (298,9 ming so'm) tumanlarida qayd etildi. Ushbu ko'rsatkich viloyat hududlari kesimida quyidagicha ko'rinish olgan.





**Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi**

(2020-yil yanvar-fevral)

Hududlar nomi	Ming so'm	2019-yilning shu davriga nisbatan, % da
<b>Samarqand vilovati</b>	<b>547,8</b>	<b>107,4</b>
Samarqand shahri	1 334,4	112,7
Kattaqo'rg'on shahri	1 234,7	105,2
<i>tumanlar:</i>		
Bulung'ur	596,5	103,6
Jomboy	339,4	100,8
Ishtixon	335,7	103,7
Kattaqo'rg'on	298,9	104,6
Narpay	320,2	104,8
Nurobod	485,9	104,6
Oqdaryo	277,8	102,0
Payariq	305,8	103,3
Pastdarg'om	408,4	107,2
Paxtachi	460,1	105,2
Samarqand	484,4	119,4
Urgut	462,9	101,9
Tayloq	285,5	101,9
Qo'shrabot	468,2	103,5

2020-yilning yanvar-fevral oylari mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 2,5 % ni tashkil etib, 53,1 mlrd. so'mga yetdi, yoki 2019-yilning mos davriga nisbatan 9,8 % o'sishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 92,0 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari ulushiga to'g'ri kelmoqda.

**Samarqand viloyatining ulgurji savdo  
tovar aylanmasi**

*(2020-yil yanvar-fevral\*)*



2020-yil yanvar-fevral oylarida viloyat bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 959,8 mlrd. so'mni tashkil qildi va 2019-yilning shu davriga nisbatan 1,9 % ga o'sdi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2020-yil yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra 749,2 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yilning shu davriga nisbatan 110,4 % ni tashkil etdi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 78,1 % ni tashkil qilmoqda. Yirik korxonalar esa, 210,6 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yilning shu davriga nisbatan 80,0 % ni tashkil etdi.

**Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalar hamda  
kichik biznes subyektlarining ulushi, (%)**

2019-yil yanvar-fevral

2020-yil yanvar-fevral



■ Yirik korxonalar ■ Kichik biznes subyektlari

■ Yirik korxonalar ■ Kichik biznes subyektlari



**Kichik biznes subyektlari hamda yirik  
korxonalarining ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi**  
(2020-yil yanvar-fevral)

Hudud nomi	Yirik korxonalar (mln. so'm)	2019-yilning shu davriga nisbatan, % da	Kichik biznes subyektlari (mln. so'm)	2019-yilning shu davriga nisbatan, % da
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>210 554,5</b>	<b>80,0</b>	<b>749 240,0</b>	<b>110,4</b>
Samarqand shahri	154 254,6	95,3	348 453,8	110,0
Kattaqo'rg'on shahri	47,0	102,1	16 082,7	110,3
<i>tumanlar:</i>				
Bulung'ur	25,2	66,5	19 050,1	105,0
Jomboy	52,4	45,4	14 772,4	110,3
Ishtixon	76,8	109,8	11 112,1	110,4
Kattaqo'rg'on	152,7	152,2	8 691,2	110,2
Narpay	2 454,5	66,3 m.	3 294,9	84,5
Nurobod	23,9	185,4	1 779,7	110,2
Oqdaryo	3 744,1	49,2 m.	39 491,0	95,7
Payariq	5 521,2	45,1 m.	23 306,8	90,8
Pastdarg'om	41 125,1	41,8	42 885,0	272,3
Paxtachi	68,1	2,1 m.	1 117,7	110,2
Samarqand	2 861,4	131,8	55 743,3	106,6
Tayloq	10,9	24,3	149 894,9	104,7
Urgut	81,6	2,2 m.	12 941,7	102,5
Qo'shrabot	55,0	102,3	622,6	110,2

\*-dastlabki ma'lumot

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi bo'limi**  
**Tel.:71-230-85-23**  
**66-235-65-80**